



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

Qo'qon DPI ILMIY XABARLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
Кокандский ГПИ



maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, <https://lex.uz/docs/-6476175>

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79-son Farmoni 6-ilovasida keltirilgan “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida islohatlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo‘yicha yo‘l xaritasi” // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, <https://lex.uz/docs/-6476175>

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-dekabrda “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10-11-sinf o‘quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 792-son qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, <https://lex.uz/docs/-5800745>.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-158-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>.

7. Safarova R.G‘. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida madaniy muhit yordamida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirish imkoniyatlari // “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida madaniy muhitni yaratishning pedagogik texnologiyalari: muammo va yechimlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2023. – B. 117-120.

UDK: 371.302

**AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARNING TA’LIM
JARAYONIDA AXBOROT BILAN ISHLASH TAYANCH
KOMPETENSIYASILARNI SHAKILLATIRISHGA
QO‘YILADIGAN DIDAKTIK TALABLAR.**

*Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Pedagogika kafedrasida 1-kurs tayanch doktranti
Botiraliyeva Maftunaxon Botirali qizi*

Annotatsiya: Inson hayotidagi komillikka intilish, yetuklik sari boorish, tafakkur cho‘qqilarini egallashga bo‘lgan harakat bir so‘z bilan aytganda akmeologiya bo‘lib, ta’lim jarayonida o‘quvchilarni o‘z sohalari, yo‘nalishlari va qiziqishlari uchun kerakli axborotni qidirish komponentlik shakllantirishda akmeologiya metoddari ustuvorlik kashf etadi.

Kalit so‘zlar: Akme, integratsiya, metodologiya, akmeologiya, akmeogramma, genetik, psixofiziologik, psixobiografiya, akmeologik ekspertiza.

Аннотация: Стремление к совершенству в жизни человека, стремление достичь зрелости, достичь вершин мышления есть, одним словом, акмеология. Акмеологические методы мониторинга компетентности источника информации обнаруживают стабильность.

Ключевые слова: Акме, интеграция, методология, акмеология, акмеограмма, генетическая, психофизиологическая, психобиография, акмеологическая экспертиза.

Annotation: The pursuit of perfection in human life, striving towards maturity, the effort to acquire the heights of thinking is, in a word, acmeology. methods of acmeology gain priority in the formation of information search competence.

Key words: Acme, integration, methodology, acmeology, acmeogram, genetic, psychophysiological, psychobiography, acmeological expertise.

Insonning yetuklik bosqichi — yetukligining «akme» deb ataladigan cho‘qqisi hayotini, vaqt uzunligining asosiy qismini qamrab oladigan ko‘p o‘lchovli holatidir. Bu holat doimo insonni faoliyatning ma’lum sohasida qay darajada fuqaro, mutaxassis sifatida chiqqanligini ko‘rsatadi. Uni o‘rab olgan voqelik ichidagi boy yoki nochor aloqalar uning umr yo‘ldoshi, ota-ona sifatida qandayligini bildiradi. Shu bilan birga, u statik tuzilgan bo‘la olmaydi, aksincha, ko‘p yoki kamroq variantivligi va o‘zgaruvchanligi bilan ajralib turadi.

Insonning jismoniy holatiga mansub bo‘lgan komponentlik qoidaga ko‘ra, yetuklik parametrlari doirasida tipik tavsifni doimo olib yuradi va qayta o‘zgarishlarga uchraydi. Insonning mazmunli spetsifikasi va uni ifodalash shaklining mana shunday harakatchan birligi fuqaro, shaxs faoliyati subyekti, umr yo‘ldoshi, ota-ona sifatida ifodalanayotgan yetuklik bosqichida har doim kuzatilishi mumkin. Insonni yaxlit tushunishda ular orasidagi bog‘liqliklarning barcha murakkabligini anglash uchun turli fan nuqtayi nazaridan olib borilgan tadqiqotlarda olingan yetuk insonni o‘rganish natijalarini yaxlit bir tizimga to‘plash zarur bo‘ladi. Ushbu yondashuvda insonni o‘rganish, olingan ma’lumotlar integratsiyasi — murakkab jarayon va maxsus metodologiyasini yaratishni, hamda ularni bir-birlari bilan ilmiy-korrektiv birlashuvi texnikasini talab etadi.

Ana shu texnika akmeologiyaning **metodlarini** ifoda etadi. Akmeologiyaning nazariy metodlari tizimiga quyidagilar kiradi:

1. Mantiqiy : analiz, sintez, induksiya, deduksiya, mushohadali (xayoliy) eksperiment.
2. Tahlilning matematik metodi: korrelyativ, omilli, dispersion, diskriminatsion, klasterli va boshq.
3. Fanlararo metodlar - yondashuvlar: kompleks, tizimli, funksional, genetik, longityudli, modeli, biografik, vaziyatli va boshq.

Akmeologiyaning amaliy-ishlab chiqarish metodlari sinfiga quyidagilar kiradi:

a) umumilmiy : kuzatuv, eksperiment, ekspert bahosi;

b) alohida fanlarning metodlari, jumladan:

- psixologik (test, kuzatish, suhbat, o‘z-o‘zini kuzatish, o ‘zo ‘ziga hisobot berish, psixosemantik);
- ijtimoiy (ro‘yxatga olish, so‘rov, intervyu olish, so ‘rovnoma o ‘tkazish);
- psixofiziologik.

d) akmeologik metodlar: (akmeogramma, test, psixobiografiya, akmeologik ekspertiza).

Akmeologiyaning nazariy metodlari tizimi va amaliy metodlari ta’lim jarayonida o‘quvchilarning axborot bilan ishlashida samarali foyda beradi. Bundan tashqari o‘quvchilar akmeogramma asosida faoliyat olib borsa, u ta’lim tizimining mohiyatini yanada chuqurroq anglay boshlaydi. Shu bilan bir qatorda tafakkuri o‘sib, yetuklik sari boradi.

Akmeogramma — akmeografik yondashuvning asosiy metodi va u progressiv rivojlanishga hamda birinchi navbatda shaxsning professionalizmi va muayyan mehnat subyektlari faoliyatining taraqqiyotiga imkon beradigan talablar, sharoit va omillar tizimini namoyon etadi. Akmeogramma doimo individual bo‘ladi, rasmiy ravishda u samarali faoliyat ko‘rsatayotgan subyektning individual «kesimi»ni, uning imkoniyatlari va istiqbollari, o‘rnini

qoplaydigan va aksi bo‘lgan xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi.

Mutaxassis akmeogrammasi¹	
№ _____	«_____» _____ 20____ y.
Familiyasi, ismi, sharifi: _____	
Jinsi _____	Yoshi _____ Ma’lumoti _____
Ixtisosligi _____	
Faoliyatidagi o‘shish dinamikasi _____	
Malakaviy darajasi _____	
Malaka oshirish bo‘yicha qayta tayyorlash (o‘z ustida ishlash) _____	
Qo‘shimcha ma’lumotlar _____	
1. Qobiliyatlar:	
• murakkab; • xususiy; • murakkab xususiy; • mavjud iqtidor; • mavjud iste’dod; • qo‘shimcha ma’lumotlar.	
2. Tizimosti individuallik:	
• «Men» obrazining tavsifi; • yutuqlarga bo‘lgan ehtiyojning asoslanganligi; • o‘z-o‘zini baholash tavsifi; • qadriyatlarga yo‘naltirilganlik va qiziqishlari; • o‘zini mehnatga bag‘ishlash; • qo‘shimcha ma’lumotlar².	

Akmeogrammalar inson faoliyatiga qarab turlicha tuzilishi mumkin. Yuqorida akmeolog tavsiya berishi yoki ekspert to‘g‘ri xulosa chiqarishi uchun tuzilgan “mutaxassis akmeogrammasi” keltirilgan.

Akmeogramma professiogramma va psixogrammaga nisbatan umumlashtiruvchi kategoriya bo‘lib hisoblanadi. Akmeogramma insonning individual-ruhiy va psixofiziologik o‘ziga xos xususiyati va kasbiy faoliyatini kompleks tarzda tavsiflash bo‘lib, buyuk zotlarning o‘sib-ulg‘ayishi va mukammallashuvi, o‘z kasbi tomon intilishi jarayoni, qanday qilib olamshumul yangiliklar yaratganliklari va liderlik qobiliyatlarini o‘rganadi. Natijada, jamiyatimizning ilg‘or akme shaxslari o‘tmishdagi ajdodlarimiz bosib o‘tgan yo‘l, ular erishgan cho‘qqilar — kamolot va mukammallik cho‘qqisiga erishish mexanizmlarini yaxshiroq va mukammal anglashidir. Bu esa, o‘z navbatida, bugungi kun nuqtayi nazaridan istiqbolimiz trayektoriyasini ham belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Akmeogramma professional faoliyatning atroflicha tavsifini va u tomondan insonning individual-psixologik va psixofiziologik xususiyatlariga qo‘yiladigan talablarni o‘z ichiga oladi. Bolalar va yoshlarda ularning iqtidor va qobiliyatlarini aniqlash, rivojlantirish bo‘yicha real sharoitlarni yaratish akmeologik muhitdan darak bersa, ushbu yoshlarni topish, iste’dodlarini aniqlash va ularni rivojlantirish asosida yuqori pog‘onalarga erishuvini ta’minlash bir-biridan ajralmas, bir butun yaxlit tizim sifatida qaralmoqda. Akmeogrammani aniq, to‘g‘ri va xolisona to‘ldirish ekspert yoki akmeolog tomonidan maqbul va ishonchli natijaning olinishi kafilidir. Umumiy qilib aytganda, akmeologik yondashuv asosida o‘quvchilarning ta’lim jarayonida axborot bilan ishlash tayanch kompetensiyasilarini shakllantirish jarayonida akmeologiyani yuqorida keltirilgan nazariy va amaliy metodlariga tayanish yaxshi natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. TILLAYEVA G.H. Akmeologiya asoslari. TAFAKKUR BO‘STONI» TOSHKENT - 2014
2. Деркач А., Зазыкин В. Акмеология: Учебное пособие. – Спб.: «Питер», 2003.
3. Деркача А. А. Акмеология: Учебник. Изд. РАГС, 2006.

Профессиональная педагогическая деятельность учителя математики на основе инновационных подходов к обучению.

*Старший преподаватель
Кокандский ГПИ. А.А.Эргашев.*

Аннотация

В статье сделан анализ психолого-педагогических и методических исследований проблемы совершенствования профессиональной подготовки будущего учителя математики в педвузе, который показывает, что профессиональная педагогическая деятельность является интегративной, включает как традиционные, так и инновационные компоненты педагогической деятельности.

Ключевые слова. Модернизация, учебно-воспитательный процесс, педагогическая профессиональная компетентность, дидактическая деятельность, технология, педагогическое творчество, компетентность.

Annotation

In the article the analysis of psychological, pedagogical and methodical researches of the problem of improvement of professional training of the future teacher of mathematics in pedagogical university is considered. It shows that professional pedagogical activity is integrative, includes both traditional and innovative components of pedagogical activity.

Key words. Modernization, educational process, pedagogical professional competence, didactic activity, technology, pedagogical creativity, competence.

Annotatsiya

Maqolada pedagogik universitetda bo‘lajak matematika o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish muammosi bo‘yicha psixologik-pedagogik va uslubiy